



INNOVATIVE  
WORLD

ISSN: 3030-3079

# ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI  
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal

2026/4




[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)  
+998 33 5668868



# ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 4  
2026

Journal has been listed in different indexings



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:  
[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

Uzbekistan-2026

## YAPON VA O'ZBEK TILLARIDA GAP QURILISHINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Janisbayeva Diyora Begzod qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-kurs talabasi, Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek va yapon tillarining grammatik qurilishi qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etilgan. O'rganish davomida har ikki til uchun xos bo'lgan SOV, ya'ni Subject+Object+Verb modelining sintaktik xususiyatlari, gap bo'laklarining joylashuv tartibi va ularning o'zaro bog'lanish qonuniyatlari tahlil qilingan. Yuqoridagi tillar aggyutinativ til oilasiga mansub ekanligi keng yoritilib, maqolada gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari (darak, so'roq, buyruq, his-hayajon) va fe'ning zamon kategoriyalari misolida o'zbek va yapon tillaridagi o'xshash va farqli jihatlar ilmiy asoslab berilgan. Olingan natijalar tillarning tipologik o'xshashligini aniqlashda hamda tarjimashunoslik sohasidagi ayrim muammolarni bartaraf etishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** qiyosiy tipologiya (Komparativistika), sintaktik struktura, SOV modeli, Morfosintaktik tahlil, gapning maqsadiga ko'ra turlari, zamon kategoriyasi, ega, kesim va to'ldiruvchi munosabati, aggyutinativ tillar oilasi

**Abstract:** This scientific article presents a rigorous comparative-typological investigation into the grammatical frameworks of the Uzbek and Japanese languages. A central premise of the study is the shared agglutinative nature of these linguistic systems, which is extensively explored to demonstrate their structural parallels. The research meticulously analyzes the SOV (Subject-Object-Verb) constituent order, focusing on the syntactic nuances of word positioning and the governing laws of grammatical cohesion. Furthermore, the study provides a scholarly evaluation of the functional similarities and divergences between the two languages by examining illocutionary sentence types—declarative, interrogative, imperative, and exclamatory—alongside an in-depth analysis of temporal verb categories. The empirical findings contribute significantly to the broader discourse on linguistic typology and offer instrumental insights for addressing complex challenges within the field of translatology.

**Key words:** Comparative Typology, Syntactic Structure, SOV Model, Morphosyntactic Analysis, Illocutionary Sentence Types, The Category of Tense, Subject, Predicate, Object, Agglutinative Language Family.

**Аннотация:** В данной статье проводится сравнительно-типологическое исследование грамматического строя узбекского и японского языков. В процессе исследования анализируются синтаксические особенности модели SOV (Subject+Object+Verb), характерной для обоих языков, а также порядок расположения членов предложения и закономерности их взаимосвязи. В работе подробно рассматривается принадлежность вышеуказанных языков к агглютинативному типу, на основе чего научно обосновываются сходства и различия в категориях глагольного времени и типах предложений по цели высказывания (повествовательные+ вопросительные+)

побудительны+восклицательные). Полученные результаты имеют важное теоретическое значение для определения типологической близости данных языков и способствуют решению актуальных проблем в области переводоведения.

**Ключевы слова:** сравнительная типология(компаративистика), синтаксическая структура, модель SOV, морфосинтаксический анализ, типы предложений по цели высказывания, категория времени, подлежащее, сказуемое, дополнение, агглютинативные языки.

**Kirish.** Grammatika-tilshunoslikda keng tarqalgan tushuncha bo'lib, so'z tuzilishi, gapda so'zlarning o'zgarishi va birikishini o'rganadi. Grammatika o'za ichida 2 qismdan iborat (morfoloqiya va sintaksis). Morfoloqiya so'zlarning grammatik turkumlari, morfoloqik kategoriyalari va so'z shakllari o'rganiladi. Sintaksis so'z shakllarining gap tarkibida birikish usullari, gap va uning kategoriyalari, gap qurilishini o'rganadi.

Tilshunos Noam Chomsky tilni inson tafakkuri bilan bog'lab, sintaksisni tilning markaziy qismi sifatida baholaydi.

Ferdinand De Sussur tilni bir yaxlit tizim sifatida o'rganish oraliq sintaktik aloqalar (sintagmatik birliklar) mohiyatini keng ochib bergan.

O'zbek tilshunos olimlaridan ham G'ani Abdurahmonov, Azim Hojiyev va Nizomiddin Mahmud tilshunoslikning sintaksis yo'nalishiga katta hissa qo'shgan. Jumladan, Azim Hojiyev Fe'l va uning gapdagi vazifalari, sintaktik aloqalar (boshqaruv bitishuv, moslashuv) bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan. G'ani Abdurahmonov o'zbek tilida sintaksisning "otasi" hisoblanadi. Uning sintaksis masalalariga bag'ishlangan "O'zbek tili grammatikasi" darsliklari va qo'shma gap bo'yicha olib borgan tadqiqotlari tilshunoslik sohasining muhim manbalarida biridir.

Ushbu maqola ham yapon va o'zbek tilining sintaktik qurilishini tahlil qiladi.

Agglyutinatив tillar-so'z o'zagi yoki negiziga turli xil qo'shimchalarning birin-ketin qo'shilishi orqali yangi so'z, shakl hosil bo'ladigan tillar. Bu guruhga turkiy tillar, Osiyo va Afrikadagi ko'pgina xalqlarning tillari kiradi.

Gap –muayyan til qonuniyatiga ko'ra grammatik va intonatsiyaviy shakllangan nutq birligi, fikr shakllanishi va ifodalanishining asosiy vositasi hisoblanadi. Gapning asosiy xususiyati predikativlik, modallik, xabar inotatsiyasi, marom-ohang, tugallanganlik, so'z taribidan iborat ekanligidir.

Fe'l zamonlari — bu harakat yoki holatning nutq so'zlanib turgan vaqtga nisbatan qachon bajarilganini ifodalovchi grammatik kategoriya hisoblanadi. O'zbek tilida fe'l zamonlari uchta asosiy turga bo'linadi. (o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon)

### ASOSIY QISM

Grammatik qurilish-bu tilda so'z va gaplarni shakllantirish, ularni o'zaro bog'lash va ma'lum tartibda joylashtirish qoidalarining majmuidir. Morfoloqiya so'zlarning turlarinishi, tuslanishi qo'shimchalar orqali yangi ma'nolar kasb etilishi (kelishik, ko'plik, zamon qo'shimchalari) o'rganilsa, sintaksisda so'zlarning

birikishi va ularning gapda qay tartibda joylashishi tadqiq qilinadi. Yapon va o'zbek tillarida ham gap qurilishining grammatik strukturasi SOV modeliga tayangan. Tilshunoslik sohasida ega+to'ldiruvchi+kesim shakliga to'g'ri keladi. Mazkur strukturada predikat, ya'ni fe'l, gapning yakuniy pozitsiyasidan o'rin olgan bo'lib, gapning semantik markazini tashkil qiladi.

Misollar:

O'zbek tilida: Men kitobni o'qidim

Sinntaktik tahlil:

Men-ega

Kitobni-to'ldiruvchi

O'qidim-kesim

Yapon tilida: わたしは本を読みました。

(Watashi wa hon o yomimashita)

Sintaktik tahlil:

わたしは (watashi wa) — ega

本を (hon o) — to'ldiruvchi

読みました (yomimashita) — kesim

**So'z birikmasi.** So'z birikmasi -ikki yoki undan ortiq so'zning grammatik bo'g'lanishi hisoblanadi. Yapon va o'zbek tilida so'z birikmasi o'xshash bo'lsada, ayrim holatlarda farqli jihatlar mavjud.

Masalan:

O'zbekcha: Qizil gul (aniqlovchi+aniqlanmish)

Katta uy (aniqlovchi+bosh so'z)

Yaponcha: 赤い花 (akai hana) — qizil gul

赤い (akai) — aniqlovchi

花 (hana) — bosh so'z

大きい家 (ookii ie) — katta uy

大きい (ookii) — aniqlovchi

家 (ie) — bosh so'z

Har ikkala tilda ham grammatik vositalarning asosiy maqsadi-so'zlar orasidagi sintaktik munosabatni ifodalash. O'zbek tilida bu vazifa afixislar orqali, yapon tilida eda particlelar orqali namoyon bo'ladi.

Masalan:

Mening kitobim (ning-qaratqich, im-egalik qo'shimchasi)

私の本 (watashi no hon) watashi-men, no-alohida so'z-qo'shimcha (ning), hon-kitob.

**Gap.** Gap aniq bir tugallangan fikrni bildiradi va kommunikativ birlik hisoblanadi. Gapning asosiy belgilari:

Predikativlik (kesimlilik) - gapning zamon, shax-son va mayllardan iborat bo'lishi.

Modalik-so'zlovchining borliqqa va o'z fikriga bo'lgan munosabati tushuniladi. Tasdiq, inkor, so'roq, darak ohangdagi gaplardan iborat.

Intonatsiya gapning baland yoki past ohangda ,ta'sirchanlik darajasi bilan nutq jarayonida ishtirok etishidir.

O'zbek tilida gaplar ifoda maqsadiga ko'ra 4 turga bo'linadi:darak gap,so'roq gap,buyruq gap va his-hayajon(undov) gaplarga bo'linadi.

**Darak gap.**Darak gaplar biror voqea-hodisa,harakat haqida xabar berish,ma'lumot berish uchun xizmat qiladi.

Masalan:Kecha yomg'ir juda kuchli yog'gan edi.

昨日は雨がとても強く降りました。

(Kinō wa ame ga totemo tsuyoku furimashita.)

So'roq gap.So'roq gaplar-biror narsa haqida ma'lumot olish maqsadi so'roq ohangida berilgan gaplar.O'zbek tilida so'roq gaplar -mi yuklamasi bilan,Yapon tilida esa か(ka) yuklamasi bilan yasaladi.

Misol:Siz talabasizmi?

あなたは学生ですか？ (Anata wa gakusei desu ka)

Buyruq gap.Buyruq gap-Kommunikativ vazifasiga ko'ra buyruq,iltimos qilish,maslahat qilish ma'nolarini anglatadi.Yapon tilida esa O'zbek tiliga qaraganda keskinroq va ancha qo'pol hisoblanadi.

O'zbek tilida: Fe'l o'zagiga -ing yoki -ingiz qo'shimchasi qo'shiladi.

Misol: Yozing, Keling.

Yapon tilida: Fe'lning -te formasi va kudasai (iltimos) so'zi ishlatiladi.

Misol: Kaite kudasai (Yozing), Kite kudasai (Keling).

Undov.Ikkala tilda ham gapning boshida kelib,umumiy emotsional fonni belgilaydigan so'zlardir.

O'zbek tilida:oh,voy,ey,urra,attang.

Yapon tilida:Aa (ああ), Waa (わあ), Yatta (やった), Shimatta (しまった).

Farqli jihatlari.Yapon tilida gap oxiridagi yuklaa so'zlovchining jinsi va yoshini ham bildiradi.Masalan,"wa" yuklamasi so'zlashuvda ko'proq ayollarga xos.

**Fe'l zamonlari.**O'zbek tilida zamonlar tizimi ancha murakkab va serqirra.Yapon tilida esa bularning barchasi ikkita asosiy qolipga va fe'lning -te shakli orqali yasaladigan kombinatsiyaga tayanadi.

O'tgan zamon-bu tugallangan ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi.

O'zbekcha: Yedim.

Yaponcha: 食べた (Tabeta) / 食べました (Tabemashita).

Hozirgi zamon-ayni damda davom etayotgan harakat va holatni ifodalash uchun ishlatiladi.

O'zbek tilida: Fe'lga -yap,-ayap,-yotir,-ayotir,-moqda qo'shimchalari qo'shiladi.

Misol: Ovqat yeyapman.

Yapon tilida: Fe'lning -te shakliga iru (yoki imasu) ko'makchi fe'li qo'shiladi.

Misol: べています (Tabete imasu - Yeyapman).

Kelasi zamon-ish-harakatning nutq jarayonidan keyin bajarilishini ifodalaydi.Yapon tilida grammatik strukturaning o'ziga xosligi shundaki,unda hozirgi va kelasi zamon uchun ham bitta umumiy shakl,ya'ni ます (masu)

ishlatiladi. O'zbe tilida esa -moqchi, -ar, -ajak qo'shimchalari kelasi zamonning yasashida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekcha: Men ertaga maktabga boraman.

Yaponcha: 私は明日学校へ行きます。

(Watashi wa ashita gakkou e ikimasu.)

**Agglyutinativlik.** Agglyutinativ tillarda har bir qo'shimcha (affiks) faqat bitta grammatik ma'noni anglatadi va ular o'zakka ketma-ket, zanjir kabi ulanadi. O'zak esa deyarli o'zgarmaydi. Bunday tillarning kuchli jihati fe'llarda ko'proq namoyon bo'ladi.

O'zbek tilida:

Kelolmadilar

Kel (O'zak)

-ola (Imkoniyat: -olmoq)

-ma (Inkor)

-di (O'tgan zamon)

-lar (Shaxs-son: ular)

Yapon tilida:

行かせたくなかった (Ikasetakunakata)

Ika (O'zak: bormoq)

-se (Majbur qilish/Orttirma nisbat)

-taku (Xohish: -moqchi)

-nakatta (Inkorning o'tgan zamoni: -madi)

Ma'nosi: "Borishga majbur qilishlarini xohlamagan edi".

O'xshashliklar: SOV strukturasi bir xl, agglyutinativlik, so'z birikmasining ayrim o'xshash jihatlari

Farqli tomonlar: o'zbek tilida afiksizlar, yapon tilida particle lar mavjudligi, yapon tilida so'zlar asosan ikkita zamonda qo'llanilishi.

### XULOSA

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, o'zbek va yapon tillarida so'z birikmasining tuzilishi, zamon kategoriyalari va gaplarning qurilishida sezilarli farqlar mavjud bo'lsa-da, bu ikki tilning umumiy grammatik ketma-ketligi, strukturasi o'xshashdir. Birinchidan, o'zbek va yapon tillari genetik jihatdan turli oilalarga mansub bo'lsa-da, tipologik kategorial xususiyatlariga ko'ra hayratlanarli darajada yaqinlikka ega. Har ikki tilda ham gap qurilishining SOV (Ega — To'ldiruvchi — Kesim) modeli barqarorligi, so'z yasashda affiksatsiyaning ustuvorligi va morfologik ko'rsatkichlarning mantiqiy ketma-ketligi bu tillarning o'xshash kognitiv modelga asoslanganini isbotlaydi. Bu esa, o'z navbatida, ikki til o'rtasidagi bevosita tarjima jarayonlarini osonlashtirish va qiyosiy tilshunoslikning yangi qirralarini ochish imkonini beradi.

Ikkinchidan, yapon va o'zbek tillarining agglutinativ qurilishi ularning morfosintaktik tabiatini belgilab beruvchi asosiy omildir. Tahlillar natijasida aniqlanganidek, fe'l nisbatlari, zamon va mayl kategoriyalarining ifodalanishi,

shuningdek, yordamchi soʻzlarning (yapon tilidagi joshi va oʻzbek tilidagi koʻmakchilar) funksional oʻxshashligi lingvistik universalialarning yorqin namunasidir. Ushbu oʻxshashliklar ikki tilni oʻqitish metodikasini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi, sintaktik jihatdan har ikki tilda kesimning gap oxirida kelish va aniqlovchining aniqlanishidan oldin kelishida ham umumiy oʻxshashliklar bor. Morfologik jihatdan esa soʻz ildizining oʻzgarmasligi va unga qoʻshimchalar zanjir kabi ulanishidir. Bu oʻz navbatida agglutinativlik hususiyati hisoblanadi.

Umuman olganda, yapon va oʻzbek tillari koʻp jihatdan oʻxshashdir. Grammatik koʻrsatkichlarning tabiati va shaxs-son qoʻshimchalar tomonidan nazar solsak, sezilarli tafovutlarni koʻrishimiz mumkin.

Shuni aniqladimki, yapon tilida grammatik munoabatlar asosan yuklamalar (partikillar) orqali ifodalanadi. Masalan, wa, ga, ni partikullar soʻzdan alohida yoziladi va oʻzbek tilidagi kelishik qoʻshimchalaridan farq qiladi. Oʻzbek tilida feʼllarga qarab shaxs-son qoʻshimchalari ham oʻzgaradi. Men kelyapman, U kelyapti, Sen kelyapsan kabi. Yapon tilida esa feʼllarda shaxs-songa qarab oʻzgarish hosil boʻlmaydi. "watashi wa ikimasu (Men boraman)," "Anata wa ikimasu" (Siz borasiz) gaplarida feʼl shakli bir xil qoladi.

Xulosa qilib aytganda, yapon va oʻzbek tillarining qiyosiy-tipologik tuzilishini bilish til oʻrganuvchiga chuqur oʻrganish va tushunish, ularning faqat grammatik strukturasi emas, balki mantiqiy qurilishini ham chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, grammatik va mantiqiy jihatdan tilni anglash tarjimashunoslik sohasidagi ayrim muammolarni bartaraf etishda yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Comrie, B. (1989). *Language universals and linguistic typology: Syntax and morphology* (2nd ed.). University of Chicago Press.
2. Dryer, M. S., & Haspelmath, M. (Eds.). (2013). *The world atlas of language structures online*. Max Planck Institute for Evolutionary Anthropology. <https://wals.info>.
3. Shibatani, M. (1990). *The languages of Japan*. Cambridge University Press.
4. Tsujimura, N. (2014). *An introduction to Japanese linguistics* (3rd ed.). Wiley-Blackwell.
5. Kornfilt, J. (1997). *Turkish*. Routledge.
6. Johanson, L., & Csató, É. Á. (Eds.). (1998). *The Turkic languages*. Routledge.
7. Saito, M., Imai, T., & Aboh, E. (Eds.). (2008). *Noun phrase in Japanese and English*. Oxford University Press.
8. Payne, T. E. (2006). *Exploring language structure: A student's guide*. Cambridge University Press.
9. Whaley, L. J. (1997). *Introduction to typology: The unity and diversity of language*. Sage Publications.
10. Song, J. J. (2018). *Linguistic typology: Morphology and syntax* (2nd ed.). Routledge.
11. Miyagawa, S. (2010). *Why agree? Why move? Unifying agreement-based and discourse-configurational languages*. MIT Press.
12. Siewierska, A. (2004). *Person*. Cambridge University Press.
13. Dahl, Ö. (2000). *Tense and aspect in the languages of Europe*. De Gruyter.
14. Croft, W. (2003). *Typology and universals* (2nd ed.). Cambridge University Press.